Chengbin Li o'z tadqiqotida oliy ta'lim muassasalarida asosiy vositalarni boshqarishni "to'liq hayotiy sikl" (*full life cycle*) nazariyasi asosida tahlil qiladi. Muallifning fikricha, asosiy vositalarni boshqarish jarayoni ularni xarid qilishdan boshlab, foydalanish va hisobdan chiqarish bosqichlarigacha bo'lgan barcha davrlarni qamrab olishi lozim. Tadqiqotda ushbu yondashuv asosida boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan hamda zamonaviy buxgalteriya va ma'muriy hisob tizimlari sharoitida kompleks boshqaruvni joriy etish zarurligi asoslab berilgan (Li, 2020).



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada byudjet tashkilotlarida asosiy vositalar tahlilini amalga oshirish jarayonlarini o'rganish uchun tizimli yondashuv asosida bir qator tadqiqot usullari qo'llanilgan. Epistemologik usul "asosiy vositalar" tushunchasining mazmunini aniqlashtirish va chuqurlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Umumiy ilmiy usullar — analiz, sintez, induksiya, deduksiya, abstraksiya, idealizatsiya va umumlashtirish — asosiy vositalarni boshqarish, hisobga olish va tahlil qilishning nazariy hamda metodik asoslarini shakllantirishda qo'llanilgan.

Bibliografik va bibliometrik tahlillar orqali ushbu yo'nalishdagi mavjud ilmiy qarashlar, metodik yondashuvlar va ularni rivojlantirish tendensiyalari aniqlangan. Formalizatsiya usuli esa asosiy vositalarni hisobga olish jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishda qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar kesimida amaldagi "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi yuritish bo'yicha yo'riqnoma" hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq tashkil etiladi.

Asosiy vositalar — bu byudjet tashkilotiga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida uzoq muddat (bir yildan ortiq) davomida foydalaniladigan hamda zaruratga ko'ra ijaraga berilishi mumkin bo'lgan moddiy aktivlardir.

Asosiy vositalar buxgalteriya hisobi ularning tashkilotga kelib tushishi, ichki harakati (tashkilot ichida bir bo'limdan boshqasiga o'tishi), foydalanish imkoniyatlari tugagani yoki boshqa asoslarga ko'ra hisobdan chiqarilishi hamda har bir obyektning saqlanishi ustidan nazoratni ta'minlashni qamrab oladi. Shu bilan birga, asosiy vositalardan maqsadli foydalanish, tegishli hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish va ularni buxgalteriya hisobi registrarida o'z vaqtida aks ettirish muhim ahamiyatga ega.

Byudjet tashkilotlari o'z faoliyati jarayonida foydalaniladigan, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish)da qo'llaniladigan va foydalanish muddati bir yildan ortiq bo'lgan moddiy aktivlarni ularning qiymatidan qat'i nazar asosiy vositalar tarkibida hisobga oladi.

Asosiy vositalar tarkibiga binolar, inshootlar, mashina va uskunalar, kompyuter texnikasi va ularga tegishli qo'shimcha qurilmalar, transport vositalari, asbob-uskunalar, kutubxona fondi, uzatish qurilmalari, ishchi va mahsuldor chorva mollari hamda boshqa moddiy aktivlar (muzey qimmatliklari, hayvonot dunyosi eksponatlari, sahna va sahnalashtirish vositalari, o'quv kinomateriallari, magnit disklar va lentalar, kassetalar va boshqalar) kiradi.

Zamonaviy hisob va boshqaruv tizimlari rivojlanib borayotgan sharoitda asosiy vositalar tarkibi kengayib, raqamli infratuzilma elementlarini ham qamrab olmoqda. Jumladan, server uskunolari, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazlari, lokal va korporativ tarmoq infratuzilmalari, litsenziyalangan dasturiy ta'minotlar, elektron ta'lim platformalari hamda axborot tizimlarining texnik vositalari uzoq muddat foydalaniladigan aktivlar sifatida e'tirof etilmoqda.

Qiymati va xizmat muddati qanday bo'lishidan qat'i nazar, quyidagilar ham asosiy vositalar tarkibiga kiritiladi: qishloq xo'jaligi mashinalari va jihozlari, katta yoshdagi ishchi va mahsuldor chorva mollari (shu jumladan mayda chorva), kutubxona fondlari, muzey qimmatliklari (muzey eksponatlaridan tashqari), hayvonot dunyosi eksponatlari, namunaviy loyihalash hujjatlari, shuningdek zamonaviy axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi obyektlari va raqamli ta'lim resurslari.

Ko'p yillik ekinlar (plantatsiyalar)ga qilingan kapital qo'yilmalar hisobot yilida foydalanishga topshirilgan maydonlar bo'yicha amalga oshirilgan xarajatlar summasi miqdorida, ishlar to'liq yakunlangan sanadan qat'i nazar, har yili asosiy vositalar tarkibiga kiritiladi.

01 "Asosiy vositalar" schyoti tarkibiga turli turdagi asosiy vositalarni alohida hisobga olish uchun mo'ljallangan subschyotlar kiradi. Jumladan, 010 "Turar joy binolari", 011 "Noturar joy binolari", 012 "Inshootlar", 013 "Mashina va uskunalar", 015 "Transport vositalari", 018 "Kutubxona fondi" hamda 019 "Boshqa asosiy vositalar" subschyotlari orqali asosiy vositalar ularning turlari bo'yicha tizimli ravishda tasniflanadi va hisobga olinadi.

Xizmat muddati va qiymatidan qat'i nazar, ayrim moddiy qiymatliklar asosiy vositalar tarkibiga kiritilmaydi. Bular qatoriga maxsus asboblardan va moslamalar (seriyali yoki individual ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan), maxsus va sanitariya kiyimlari, maxsus poyabzal, yotoq anjomlari, kanselyariya buyumlari (kalkulyatorlar, stol jihozlari va boshqalar), oshxona va dasturxon anjomlari, vaqtinchalik (notitul) inshootlar, xizmat muddati bir yildan kam bo'lgan almashinuvchi uskunalar hamda ov anjomlari kiradi. Ushbu moddiy qiymatliklar buxgalteriya hisobida tovar-moddiy zaxiralar tarkibida hisobga olinadi.

010 "Turar joy binolari" subschyotida to'liq yoki asosan yashash uchun mo'ljallangan binolar (umumiy foydali maydonining kamida 50 foizi turar joy sifatida foydalaniladigan binolar) hisobga olinadi. Shuningdek, ushbu subschyotda tashkilot balansida bo'lgan xodimlar yashashi uchun mo'ljallangan turar joylar ham aks ettiriladi.



011 “Noturar joy binolari” subschyotida turar joy bo'lmagan barcha binolar hisobga olinadi. Ular tarkibiga ishlab chiqarish va xo'jalik binolari, davlat boshqaruv organlari binolari hamda ijtimoiy-madaniy maqsadlarda foydalaniladigan obyektlar (ta'lim muassasalari, shifoxonalar, poliklinikalar, internatlar, qariyalar va nogironlar uylari, maktabgacha ta'lim muassasalari, kutubxonalar, klublar, muzeylar, laboratoriyalar va boshqalar) kiradi.

012 “Inshootlar” subschyotida suv nasos stansiyalari, stadionlar, basseynlar, yo'llar, ko'priklar, yodgorliklar, parklar, skverlar, jamoat bog'lari va boshqa inshootlar hisobga olinadi. Shuningdek, elektr uzatish liniyalari, transmisiya va quvur o'tkazgichlar hamda ular bilan bog'liq qurilmalar ushbu subschyotda aks ettiriladi. Ular energiyani uzatish va o'zgartirish, shuningdek suyuq va gazsimon moddalarni iste'molchiga yetkazish uchun xizmat qiladi.

Elektr stansiyalari, gaz-kompressor stansiyalari va nasos stansiyalarining binolari 011 subschyotida, ularda joylashgan uskunalar esa 013 “Mashina va uskunalar” subschyotida hisobga olinadi.

013 “Mashina va uskunalar” subschyotida kuch mashinalari va uskunalari, ishchi mashinalar va uskunalar, o'lchov asboblari, tartibga soluvchi qurilmalar va moslamalar, laboratoriya jihozlari, hisoblash texnikasi, tibbiy uskunalar hamda boshqa turdagi mashina va uskunalar hisobga olinadi. Ushbu subschyot doirasida ular quyidagi o'n bir guruhga ajratiladi:

1. Kuch mashinalari va uskunalari — issiqlik va elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi generator-mashinalar hamda turli energiya turlarini (suv, shamol, issiqlik, elektr energiyasi va boshqalar) mexanik harakat energiyasiga aylantiruvchi dvigatel-mashinalar.

2. Ishchi mashinalar va uskunalar — mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonida mehnat predmetlariga mexanik, termik yoki kimyoviy ta'sir ko'rsatish, shuningdek ularni ishlab chiqarish jarayonida harakatlantirish uchun mo'ljallangan mashina va apparatlar.

3. O'lchov asboblari — dozalogichlar, ampermetrlar, barometrlar, vattmetrlar, suv o'lchagichlar, vakuummetrlar, voltmetrlar, altimetrlar, geodezik asboblari, kompaslar, manometrlar, xronometrlar, maxsus tarozilar, hisoblagichlar (elektr energiyasi, gaz, suv va boshqalar), kassa apparatlari hamda shunga o'xshash asboblari.

4. Tartibga soluvchi asbob va qurilmalar — kislorod-nafas olish qurilmalari, elektr, pnevmatik va gidravlik boshqaruv tizimlari, avtomatik boshqaruv pultlari, markazlashtirish va blokirovka apparatlari, dispetcherlik nazorat qurilmalari va boshqalar.

5. Laboratoriya jihozlari — pirometrlar, regulyatorlar, kalorimetrlar, namlikni aniqlash asboblari, distillatsiya qurilmalari, laboratoriya sinov uskunalari, mikroskoplar, termostatlar, stabilizatorlar, ventilyatsion shkaflar va boshqalar.

6. Hisoblash texnikasi — elektron hisoblash mashinalari, boshqaruv va analog tizimlar, kompyuterlar va ularning qo'shimcha qurilmalari, printerlar, mobil hamda simsiz aloqa vositalari, raqamli hisoblash qurilmalari va boshqalar.

7. Tibbiy uskunalar — stomatologik kreslolar, operatsion stollar, maxsus jihozlangan yotoqlar, dezinfeksiya va dezinseksiya qurilmalari, sut oshxonalar, qon quyish stansiyalari uskunalari va boshqalar.

8. Asboblari — qo'l mehnati uchun mo'ljallangan mexanizatsiyalashgan va oddiy asboblari, elektr hamda siqilgan havo orqali ishlaydigan qurilmalar (elektr burg'ulash moslamalari, bo'yoq purkagichlar, gayka buragichlar va boshqalar), shuningdek ishlab chiqarish va montaj ishlari uchun yordamchi moslamalar.

9. Ishlab chiqarish inventari va jihozlari — ishlab chiqarish jarayonini yengillashtiruvchi buyumlar, jumladan ish stollari, verstaklar, tokchalar, idishlar, ombor jihozlari, stendlar, inventar taralar va boshqalar.

10. Xo'jalik inventari — ofis va xo'jalik jihozlari, jumladan stollar, stullar, shkaflar, divanlar, seyflar, yozuv mashinalari, ko'chma jihozlar, gilamlar, pardalar, yong'inga qarshi vositalar va boshqalar.

11. Boshqa mashina va uskunalari — yuqoridagi guruhlariga kirmaydigan sport jihozlari, o'quv laboratoriya va ustaxona jihozlari, musiqa asboblari, video va radio apparatlar, televizorlar, ilmiy-tadqiqot uskunalari, telefon stansiyalari (ATS), maishiy texnika (kir yuvish mashinalari, muzlatkichlar, changyutkichlar va boshqalar) hamda shunga o'xshash boshqa vositalar.

015 “Transport vositalari” subschyotida odamlar va yuklarni tashish uchun mo'ljallangan barcha turdagi transport vositalari hisobga olinadi. Ular quyidagi besh guruhga ajratiladi:

1. temir yo'l, suv va avtomobil transporti harakat tarkibi: elektrovozlar, teplovozlar, motovozlar, motodrezinalar, vagonlar, platformalar, sisternalar, teploxodlar, paroxodlar, dizel-elektroxo'dlar, buksirlar, barjalar, qutqaruv qayiqdari, suzuvchi pristanlar, yelkanli kemalar, yuk va yengil avtomobillar, tirkamalar, avtosisternalar, avtobuslar, traktor-tortgichlar va boshqalar;

2. havo transporti harakat tarkibi: samolyotlar, vertolyotlar va boshqalar;

3. ot-ulov transporti: aravalar va boshqalar;

4. ishlab chiqarish transporti: elektrokarrlar, mototsikllar, motorollerlar, velosipedlar, aravachalar va boshqalar;

5. sport transportining barcha turlari.



Shu bilan birga, transport va sport otlari hamda boshqa transport hayvonlari 019 “Boshqa asosiy vositalar” subschyotida hisobga olinadi.

018 “Kutubxona fondi” subschyotida alohida nusxalarning qiymatidan qat’i nazar kutubxona fondlari hisobga olinadi. Kutubxona fondiga ilmiy, badiiy va o’quv adabiyotlari, sohaviy hamda ixtisoslashtirilgan adabiyotlar, shuningdek boshqa nashrlar kiradi.

019 “Boshqa asosiy vositalar” subschyotida turli turdagi asosiy vositalar hisobga olinadi. Ular quyidagi to’qqiz guruhga ajratiladi:

1. Ko’p yillik daraxtlar va ko’chatlar. Ushbu guruhga sun’iy ko’p yillik plantatsiyalar (yoshidan qat’i nazar), barcha turdagi mevali daraxt va butalar, ko’kalamzorlashtirish hamda bezak daraxt-buta ekinlari (ko’chalar, maydonlar, parklar, bog’lar, skverlar, tashkilot hududlari va turar joy hovlilaridagi), jonli to’siqlar, shamol va qor ko’chishidan himoya qiluvchi polosalar, qum hamda daryo qirg’oqlarini mustahkamlovchi ekinlar, ilmiy-tadqiqot va o’quv muassasalaridagi botanika bog’lari ekinlari hamda boshqa ko’p yillik sun’iy ekinlar kiradi.

2. Muzey qimmatliklari — qiymatidan qat’i nazar, davlat muzeylaridagi eksponatlardan tashqari, san’at, tabiatshunoslik, tarixiy va texnik ahamiyatga ega bo’lgan buyumlar.

3. Hayvonot bog’lari va shunga o’xshash tashkilotlardagi hayvonot olami eksponatlari — qiymatidan qat’i nazar hisobga olinadigan eksponatlar.

4. Sahn va sahnalashtirish vositalari — dekoratsiyalar, mebellar va rekvizitlar, butaforiya, teatr va milliy kiyimlar, bosh kiyimlar, poyabzal, pariklar va boshqalar.

5. O’quv kinofilmlari va axborot tashuvchi vositalar — magnit disklar va lentalar, kassetalar hamda boshqa axborot tashuvchi vositalar.

6. Ishchi hayvonlar — otlar, ho’kizlar, tuyalar, eshaklar va boshqa ishchi hayvonlar, shu jumladan transport va sport otlari hamda boshqa transport hayvonlari.

7. Mahsuldor va naslli chorva mollari — sigirlar, buqalar, bufalolar, naslchilik otlari va biyalar, qo’y va echkilar, cho’chqalar, bug’ular va boshqalar.

8. Boshqa inventarlar — bolalar o’yinlari, maxsus chang’i jihozlari va boshqa shunga o’xshash vositalar.

9. Boshqa maxsus maqsadli asosiy vositalar — yuqoridagi guruhlarga kiritilmagan maxsus maqsadlardagi asosiy vositalar.

Asosiy vositalar buxgalteriya hisobiga ularning boshlang’ich qiymati bo’yicha qabul qilinadi.

013 “Mashina va uskunalar” subschyotida kuch mashinalari va uskunolari, ishchi mashinalar va uskunalar, o’lchov asboblari, tartibga soluvchi qurilmalar va moslamalar, laboratoriya jihozlari, hisoblash texnikasi, tibbiy uskunalar hamda boshqa turdagi mashina va uskunalar hisobga olinadi. Ushbu subschyot doirasida ular quyidagi o’n bir guruhga ajratiladi:

1. Kuch mashinalari va uskunolari — issiqlik va elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi generator-mashinalar hamda turli energiya turlarini (suv, shamol, issiqlik, elektr energiyasi va boshqalar) mexanik harakat energiyasiga aylantiruvchi dvigatel-mashinalar.

2. Ishchi mashinalar va uskunalar — mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko’rsatish jarayonida mehnat predmetlariga mexanik, termik yoki kimyoviy ta’sir ko’rsatish, shuningdek ularni ishlab chiqarish jarayonida harakatlantirish uchun mo’ljallangan mashina va apparatlar.

3. O’lchov asboblari — dozalogichlar, ampermetrlar, barometrlar, vattmetrlar, suv o’lchagichlar, vakuummetrlar, voltmeterlar, altimeterlar, geodezik asboblari, kompaslar, manometrlar, xronometrlar, maxsus tarozilar, hisoblagichlar (elektr energiyasi, gaz, suv va boshqalar), kassa apparatlari hamda shunga o’xshash asboblari.

4. Tartibga soluvchi asbob va qurilmalar — kislorod-nafas olish qurilmalari, elektr, pnevmatik va gidravlik boshqaruv tizimlari, avtomatik boshqaruv pultrlari, markazlashtirish va blokirovka apparatlari, dispetcherlik nazorat qurilmalari va boshqalar.

5. Laboratoriya jihozlari — pirometrlar, regulyatorlar, kalorimetrlar, namlikni aniqlash asboblari, distillatsiya qurilmalari, laboratoriya sinov uskunolari, mikroskoplar, termostatlar, stabilizatorlar, ventilyatsion shkaflar va boshqalar.

6. Hisoblash texnikasi — elektron hisoblash mashinalari, boshqaruv va analog tizimlar, kompyuterlar va ularning qo’shimcha qurilmalari, printerlar, mobil hamda simsiz aloqa vositalari, raqamli hisoblash qurilmalari va boshqalar.

7. Tibbiy uskunalar — stomatologik kreslolar, operatsion stollar, maxsus jihozlangan yotoqlar, dezinfeksiya va dezinseksiya qurilmalari, sut oshxonalari, qon quyish stansiyalari uskunolari va boshqalar.

8. Asboblari — qo’l mehnati uchun mo’ljallangan mexanizatsiyalashgan va oddiy asboblari, elektr hamda siqilgan havo orqali ishlaydigan qurilmalar (elektr burg’ulash moslamalari, bo’yoq purkagichlar, gayka buragichlar va boshqalar), shuningdek ishlab chiqarish va montaj ishlari uchun yordamchi moslamalar.

9. Ishlab chiqarish inventari va jihozlari — ishlab chiqarish jarayonini yengillashtiruvchi buyumlar, jumladan ish stollari, verstaklar, tokchalar, idishlar, ombor jihozlari, stendlar, inventar taralar va boshqalar.



10. Xo'jalik inventari — ofis va xo'jalik jihozlari, jumladan stollar, stullar, shkaflar, divanlar, seyflar, yozuv mashinalari, ko'chma jihozlar, gilamlar, pardalar, yong'inga qarshi vositalar va boshqalar.

11. Boshqa mashina va uskunalar — yuqoridagi guruhlarga kirmaydigan sport jihozlari, o'quv laboratoriya va ustaxona jihozlari, musiqa asboblari, video va radio apparatlar, televizorlar, ilmiy-tadqiqot uskunolari, telefon stansiyalari (ATS), maishiy texnika (kir yuvish mashinalari, muzlatkichlar, changyutkichlar va boshqalar) hamda shunga o'xshash boshqa vositalar.

015 "Transport vositalari" subschyotida odamlar va yuklarni tashish uchun mo'ljallangan barcha turdagi transport vositalari hisobga olinadi. Ular quyidagi besh guruhga ajratiladi:

1. temir yo'l, suv va avtomobil transporti harakat tarkibi: elektrovozlar, teplovozlar, motovozlar, motodrezinalar, vagonlar, platformalar, sisternalar, teploxodlar, paroxodlar, dizel-elektroxo'dlar, buksirlar, barjalar, qutqaruv qayiqdari, suzuvchi pristanlar, yelkanli kemalar, yuk va yengil avtomobillar, tirkamalar, avtosisternalar, avtobuslar, traktor-tortgichlar va boshqalar;

2. havo transporti harakat tarkibi: samolyotlar, vertolyotlar va boshqalar;

3. ot-ulov transporti: aravalar va boshqalar;

4. ishlab chiqarish transporti: elektrokarlar, mototsikllar, motorollerlar, velosipedlar, aravachalar va boshqalar;

5. sport transportining barcha turlari.

Shu bilan birga, transport va sport otlari hamda boshqa transport hayvonlari 019 "Boshqa asosiy vositalar" subschyotida hisobga olinadi.

018 "Kutubxona fondi" subschyotida alohida nusxalarning qiymatidan qat'i nazar kutubxona fondlari hisobga olinadi. Kutubxona fondiga ilmiy, badiiy va o'quv adabiyotlari, sohaviy hamda ixtisoslashtirilgan adabiyotlar, shuningdek boshqa nashrlar kiradi.

019 "Boshqa asosiy vositalar" subschyotida turli turdagi asosiy vositalar hisobga olinadi. Ular quyidagi to'qqiz guruhga ajratiladi:

1. Ko'p yillik daraxtlar va ko'chatlar. Ushbu guruhga sun'iy ko'p yillik plantatsiyalar (yoshidan qat'i nazar), barcha turdagi mevali daraxt va butalar, ko'kalamzorlashtirish hamda bezak daraxt-buta ekinlari (ko'chalar, maydonlar, parklar, bog'lar, skverlar, tashkilot hududlari va turar joy hovlilaridagi), jonli to'siqlar, shamol va qor ko'chishidan himoya qiluvchi polosalar, qum hamda daryo qirg'oqlarini mustahkamlovchi ekinlar, ilmiy-tadqiqot va o'quv muassasalaridagi botanika bog'lari ekinlari hamda boshqa ko'p yillik sun'iy ekinlar kiradi.

2. Muzei qimmatliklari — qiymatidan qat'i nazar, davlat muzeilaridagi eksponatlardan tashqari, san'at, tabiatshunoslik, tarixiy va texnik ahamiyatga ega bo'lgan buyumlar.

3. Hayvonot bog'lari va shunga o'xshash tashkilotlardagi hayvonot olami eksponatlari — qiymatidan qat'i nazar hisobga olinadigan eksponatlar.

4. Sahna va sahnalashtirish vositalari — dekoratsiyalar, mebellar va rekvizitlar, butaforiya, teatr va milliy kiyimlar, bosh kiyimlar, poyabzal, pariklar va boshqalar.

5. O'quv kinofilmlari va axborot tashuvchi vositalar — magnit disklar va lentalar, kassetalar hamda boshqa axborot tashuvchi vositalar.

6. Ishchi hayvonlar — otlar, ho'kizlar, tuyalar, eshaklar va boshqa ishchi hayvonlar, shu jumladan transport va sport otlari hamda boshqa transport hayvonlari.

7. Mahsuldor va naslli chorva mollari — sigirlar, buqalar, bufalolar, naslchilik otlari va biyalar, qo'y va echkilar, cho'chqalar, bug'ular va boshqalar.

8. Boshqa inventarlar — bolalar o'yinlari, maxsus chang'i jihozlari va boshqa shunga o'xshash vositalar.

9. Boshqa maxsus maqsadli asosiy vositalar — yuqoridagi guruhlarga kiritilmagan maxsus maqsadlardagi asosiy vositalar.

Asosiy vositalar buxgalteriya hisobiga ularning boshlang'ich qiymati bo'yicha qabul qilinadi (1-6-jadval).

1-jadval
Oldi-sotdi shartnomasi asosida obyekt xarid qilinganda¹

№	Operatsiya mazmuni	Debet subschyotlar	Kredit subschyotlar
1	Yetkazib beruvchilar, pudratchilar, xaridorlar va turli debitor-kreditorga to'lov amalga oshirildi	150,154,152, 159	100,101,232, 110–113
2	Yetkazib beruvchilar va pudratchilardan kelgan asosiy vositalar "boshqa xarajatlar" subschyotiga o'tkazildi	072	150,152,159,154
3	Ilgari 072 subschyotga o'tkazilgan asosiy vositalar balansga qabul qilindi	010–019	072

1 Muallif ishlanmasi



2-jadval

Kapital qo'yilmalar tugagandan so'ng qurilgan obyektning qabul qilish-topshirish yo'li bilan²

№	Operatsiya mazmuni	Debet subschyotlar	Kredit subschyotlar
1	Kapital qo'yilmalar yakunlangach qurilgan asosiy vosita obyektlari balansga qabul qilindi (yoki yuqori tashkilotdan markazlashgan tartibda o'tkazildi)	010–019	280,283,284

3-jadval

Bepul (tekinga) kelib tushganda³

№	Operatsiya mazmuni	Debet subschyotlar	Kredit subschyotlar
1	Bepul olingan asosiy vosita balansga qabul qilindi	010–019	262

4-jadval

Tovar-moddiy zahiralardan asosiy vositalarga o'tkazilganda⁴

№	Operatsiya mazmuni	Debet subschyotlar	Kredit subschyotlar
1	Yetkazib beruvchilarga to'lov amalga oshirildi	150,152,159,154	100, 101, 232, 110–113
2	Kelgan TMZ "boshqa xarajatlar" subschyotiga o'tkazildi	091	150,152,154, 159
3	TMZ balansga qabul qilindi	060–069	091
4	Qurilishda ishlatilgan TMZ (060 "Qurilish materiallari") "tugallanmagan qurilish"ga o'tkazildi	071	060
5	Qurilish tugagach asosiy vosita sifatida balansga qabul qilindi	010,011,012	071

5-jadval

Inventarizatsiya natijasida hisobga olinmagan ortiqcha asosiy vositalar aniqlanganda⁵

№	Operatsiya mazmuni	Debet subschyotlar	Kredit subschyotlar
1	Inventarizatsiya natijasida hisobga olinmagan asosiy vosita aniqlanib, balansga qabul qilindi	010–019	273

6-jadval

Qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa holatlarda⁶

№	Operatsiya mazmuni	Debet subschyotlar	Kredit subschyotlar
1	Asosiy vositalarni ta'mirlash uchun yetkazib beruvchilar, pudratchilar hamda turli debitor va kreditorlarga to'lov amalga oshirildi	150,154,159	100, 101, 232, 110–113
2	Bajarilgan ishlar dalolatnomalariga muvofiq joriy va o'rta ta'mir xarajatlari haqiqiy xarajatlar sifatida aks ettirildi	231, 241, 251, 261, 271	150, 154, 159
3	Bajarilgan ishlar dalolatnomalari va boshqa moliyaviy hujjatlarga asosan kapital ta'mir xarajatlari "o'rnatishga mo'ljallangan uskunalar" subschyotiga o'tkazildi	070	150, 154,159
4	Kapital ta'mir yakunlangach "o'rnatishga mo'ljallangan uskunalar" subschyoti yopilib, asosiy vositalar qiymati oshirildi	010–015, 019	070

Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatida tashkilotning o'zida tayyorlangan (qurilgan) obyektlar bo'yicha ularni barpo etish va qurilishni yakunlash bilan bog'liq barcha haqiqiy xarajatlar (tannarx) to'liq hajmda aks ettiriladi.

Tashkilot tomonidan bepul (tekinga) olingan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati ularning joriy (bozor) qiymati asosida, belgilangan tartibda aniqlanadi hamda buxgalteriya hisobiga qabul qilingan sanadagi holatiga

2 Muallif ishlanmasi

3 Muallif ishlanmasi

4 Muallif ishlanmasi

5 Muallif ishlanmasi

6 Muallif ishlanmasi



muvofig aks ettiriladi. Bunda ushbu aktivlarni foydalanishga tayyor holatga keltirish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar ham inobatga olinadi.

Asosiy vositalarning buxgalteriya hisobiga qabul qilingan boshlang'ich qiymatini o'zgartirish quyidagi holatlarda amalga oshiriladi: obyektni qo'shimcha qurish (dostroyka), qayta jihozlash (dooborudovanie), rekonstruksiya qilish, modernizatsiya, qisman tugatish hamda qayta baholash jarayonlarida.

Qo'shimcha qurish va qayta jihozlash ishlari obyektning texnologik yoki xizmat vazifasini kengaytirish, uning quvvatini oshirish va sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan ishlarni o'z ichiga oladi.

Rekonstruksiya ishlari mavjud asosiy vositalarni qayta qurish, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni oshirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, mahsulot (ish, xizmat) sifatini yaxshilash hamda nomenklaturasini yangilash maqsadida amalga oshiriladi.

Modernizatsiya esa ilg'or texnika va texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, ma'naviy va jismoniy eskirgan uskunalarni zamonaviy hamda samaradorligi yuqori uskunalalar bilan almashtirish orqali asosiy vositalarning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir.

Asosiy vositalarni ish holatida saqlash ularni ta'mirlash (joriy, o'rta va kapital ta'mir) orqali ta'minlanadi:

- Joriy ta'mir — asosiy vositalarni ishga yaroqli holatda saqlashga qaratilgan oddiy ta'mirlash ishlari;
- O'rta ta'mir — ta'mirlanayotgan agregatni qisman qismlarga ajratish hamda ayrim qismlarini tiklash yoki almashtirishni o'z ichiga oladi;
- Kapital ta'mir (uskunalar va transport vositalari uchun) — agregat to'liq qismlarga ajratilib, asosiy va korpus qismlari ta'mirlanadi, eskirgan detallar yangilanadi yoki tiklanadi, so'ngra yig'ish, sozlash va sinovdan o'tkazish ishlari amalga oshiriladi;
- Bino va inshootlar bo'yicha kapital ta'mir — asosiy konstruktiv elementlar va qismlarni ta'mirlash, eskirgan qismlarni almashtirish yoki tiklashni qamrab oladi.

Joriy va o'rta ta'mir xarajatlari, shuningdek boshlang'ich qiymatni oshirmaydigan kapital ta'mir xarajatlari asosiy vositalar qiymatiga kiritilmaydi. Ular byudjet xarajatlarining iqtisodiy tasnifiga muvofiq joriy xarajatlar sifatida aks ettiriladi va moliyalashtirish manbaiga qarab yil yakunida hisobdan chiqariladi.

Kutubxona fondiga kiritilgan kitoblar, darsliklar va boshqa nashrlar ularning nominal (yuzaki) qiymati bo'yicha, jumladan dastlabki muqovalash qiymatini ham inobatga olgan holda hisobga olinadi. Kitoblarni ta'mirlash va restavratsiya qilish, shu jumladan qayta muqovalash xarajatlari ularning qiymatini oshirishga kiritilmaydi. Ushbu xarajatlar tegishli iqtisodiy tasnif kodlari bo'yicha joriy xarajat sifatida moliyaviy hisobotda aks ettiriladi va yil yakunida moliyalashtirish manbasiga muvofiq hisobdan chiqariladi.

Asosiy vositalarning qoldiq qiymati ularning boshlang'ich qiymatidan (belgilangan tartibda kiritilgan o'zgartirishlar bilan birga) jamlangan eskirish summasini ayirish orqali aniqlanadi.

Asosiy vositalar hisobi inventar obyektlar kesimida, ularning saqlanish joylari hamda moddiy javobgar shaxslar bo'yicha yuritiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Byudjet tashkilotlarida asosiy vositalar hisobini yuritishda ayrim tizimli va amaliy jihatlarni yanada takomillashtirish zarurati mavjud. Ular, asosan, hisob siyosati, axborot tizimlari, hujjatlashtirish va boshqaruv jarayonlari bilan bog'liq.

1. Baholash va boshlang'ich qiymatni aniqlash masalalari. Asosiy vositalarni boshlang'ich qiymatda to'g'ri aks ettirish muhim ahamiyatga ega. Ayrim holatlarda transport, montaj, bo'xona xarajatlari yoki qo'shimcha xizmatlar to'liq hisobga olinmasligi mumkin, bu esa aktivlarning real qiymatini to'liq ifodalashga ta'sir ko'rsatadi.

2. Eskirish (amortizatsiya) hisoblashni takomillashtirish. Eskirishni hisoblash jarayonini aktivlarning haqiqiy jismoniy va texnik holatiga yanada moslashtirish hisob ma'lumotlarining aniqligini oshirishga xizmat qiladi.

3. Inventarizatsiya jarayonlarini rivojlantirish. Asosiy vositalarni muntazam va samarali inventarizatsiya qilish orqali mavjud va foydalanilayotgan aktivlar to'g'risida to'liq va ishonchli ma'lumotlar shakllantiriladi.

4. Hujjatlashtirish tizimini mustahkamlash. Qabul qilish-topshirish dalolatnomalari, ta'mirlash hujjatlari va ichki harakat hujjatlarini o'z vaqtida va to'liq rasmiylashtirish hisobning ishonchliligini oshiradi.

5. Hisob va axborot tizimlarini avtomatlashtirish. Asosiy vositalar hisobini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida yuritish ma'lumotlarning aniqligi va tezkorligini ta'minlaydi hamda inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytiradi.

6. Ta'mirlash va modernizatsiya xarajatlari aniq tasniflash. Joriy, o'rta va kapital ta'mir hamda modernizatsiya xarajatlari to'g'ri ajratish asosiy vositalar qiymatini ishonchli shakllantirishga yordam beradi.



7. Mas'ul shaxslar javobgarligini kuchaytirish. Asosiy vositalar uchun moddiy javobgar shaxslar faoliyatini tizimli nazorat qilish ularning saqlanishi va samarali foydalanilishini ta'minlaydi.

Mazkur yo'nalishlarni takomillashtirish byudjet tashkilotlarida asosiy vositalar hisobini yanada samarali tashkil etish uchun muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy sharoitda asosiy vositalar hisobi nafaqat buxgalteriya operatsiyalarini aks ettirish, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim axborot manbai sifatida ham xizmat qilishi zarur. Shu nuqtai nazardan, hisob tizimini kompleks yondashuv asosida rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Avvalo, asosiy vositalar hisobi jarayonlarini to'liq raqamlashtirish va yagona integratsiyalashgan axborot tizimlarini joriy etish muhimdir. Bu orqali aktivlarning harakati, ularning holati, eskirishi va qiymati bo'yicha ma'lumotlarni real vaqt rejimida shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish hisob ma'lumotlarining shaffofligi va ishonchligini oshirib, xatoliklarni sezilarli darajada kamaytiradi.

Ikkinchidan, asosiy vositalarni baholash, qayta baholash va eskirishni hisoblash metodologiyasini takomillashtirish zarur. Amaldagi yondashuvlarni xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga yaqinlashtirish hamda aktivlarning real xizmat muddatini inobatga olgan holda amortizatsiya hisoblash tizimini joriy etish muhim natijalar beradi.

Uchinchidan, inventarizatsiya jarayonlarini zamonaviy elektron nazorat vositalari asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. RFID texnologiyalari, shtrix-kodlash tizimlari va avtomatlashtirilgan hisob tizimlari orqali asosiy vositalarni aniqlash va nazorat qilish samaradorligi oshiriladi.

To'rtinchidan, kapital ta'mir, modernizatsiya va joriy ta'mir xarajatlarini tasniflash bo'yicha yagona metodik yondashuvni shakllantirish zarur. Bu xarajatlarning asosiy vositalar qiymatiga ta'sirini to'g'ri aks ettirish imkonini beradi.

Shuningdek, ichki nazorat tizimini kuchaytirish, moddiy javobgar shaxslar mas'uliyatini oshirish va ularning kasbiy malakasini muntazam rivojlantirish ham muhim omillardan biridir. Bu choralar asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish va moliyaviy intizomni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Byudjet tashkilotlarida asosiy vositalar hisobini modernizatsiya qilish hisob tizimini xalqaro standartlar darajasiga yaqinlashtirish, moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta'minlash hamda davlat resurslaridan oqilona foydalanishni samarali tashkil etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Сальковская И. М. *Совершенствование методики анализа основных средств* // Энергия науки. – 2015.
2. Аветисян А. Р. *Совершенствование методики анализа основных средств* // Новые модели социально-экономического развития экономических систем. – 2019.
3. Koval N. Organizational and methodological aspects of accounting of fixed assets of budget institutions // *Theoretical and practical aspects of science development: Scientific monograph*. – Part 1. – Riga: Baltija Publishing, 2023. – P. 85–117. – DOI: <https://doi.org/10.30525/978-9934-26-355-2-4>
4. Gerasimova L. Financial analysis in budgetary institutions // *International Scientific Siberian Transport Forum*. – Cham: Springer International Publishing, 2019.
5. Prodanchuk M. A., Bezdushna Y. S. Accounting for non-current assets in budgetary institutions: problems and solutions // *Ekonomika APK*. – 2020. – №12.
6. Blank I. A. *Finansovyy menedjment: uchebnyy kurs*. – Kiev: Nika-tsent, 1999. – 528 p.
7. Bogomolova L. Yu., Saveleva Yu. A. Osobennosti po etapnogo postroyeniya metodiki upravlencheskogo analiza osnovnykh sredstv v gosudarstvennykh kazennykh uchrezhdeniyakh // *Perspektivy razvitiya stroitel'nogo kompleksa*. – 2018. – №12. – P. 255–259.
8. Мухаметов А. Б., Абдувохидов А. А. Ўзбекистон Республикасида ишлаб чиқариш харажатлари ҳисоби // *Gospodarka i Innowacje*. – 2022. – P. 88–96.
9. Мухаметов А., Абдувахидов А., Матрасулов Б., Саматкулов М. Ишлаб чиқариш харажатларини туркумлаш ва уларнинг ҳисоби // *Iqtisodiyot va ta'lim*. – 2021. – №5. – P. 351–358.
10. He W. Thoughts and exploration on fixed asset management in higher education institutions under the new financial accounting system // *Journal of Economics and Law*. – 2025. – Vol. 2, No. 1. – ISSN: 3005-5768.
11. Абдукаримов К. Бухгалтерский учет основных средств в бюджетных организациях // *Иқтисод ва молия / Экономика и финансы*. – 2013. – №10.
12. Li C. Thoughts on fixed assets management in colleges and universities based on full life cycle theory // *Proceedings of the Conference on Economics and Management (CEAM 2020)*. – 2020.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>